

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “SAVOL” SHE’RI TAHLILI

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotida o‘zgacha poetik uslub, inson ichki kechinmalarini qalbining nozik qatlamlarigacha kirib borib, yuksak mahorat bilan tasvirlab bera olgan buyuk adabiyot arbobidir. Uning she’riyati tashqi voqeliklar tasviri yetakchidek ko‘rinsa ham, aslida ular teran falsafiy mushohadani ifodalovchi reallikdan parchalar xolos. Shoir o‘z ijodiyotida inson ichki kechinmalarini, hayot mohiyati, ruhiy izlanishlarni asosiy mavzu sifatida ilgari surar ekan, ularning barchasi tasvirida savol berish, izlash, haqiqat sari intilish ohanglaridan keng foydalanadi. Tayyor javoblarni o‘quvchi e’tiboriga taqdim etish o‘rni, mulohazaga undaydigan g‘oyalar bilan asarlarini yakunlaydi. Faynberg qaysi mavzuda qalam tebratmasin, ularning barchasi markazida inson turadi.

U inson dardi, iztirobi, quvonchi, umid va qo‘rquvlarini kitobxonga tushuntirishga harakat qiladi. Shu sababdan u bitgan asarlar ruhiy iztiroblardan ham kengroq ma’no, ya’ni insonni komillik eltuvchi yo‘lni anglatadi. Dard va go‘zallik, iztirob va ilhom, hayot va o‘lim o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik Faynberg poetikasining asosiy ustunlaridandir. U ko‘p hollarda hayotning achchiq haqiqatlarini sir tutmasdan, ularni umumlashtirib estetik qiymat darajasiga ko‘taradi. Shoir ijodiy yo‘lida savol motivi alohida ahamiyat kasb etishining ham o‘ziga xos sabalari bor. Savol bu oddiy gramatik qurulma emas, tafakkur harakati, ruhiy bezovtalik ifodasi. Faynberg lirik qahramoni ko‘pincha qat’iy hukm chiqaruvchi shaxs emas, nimalargadir javob izlayotgan shaxs sifatida gavdalantiriladi. U

hayotning, yashashning mazmun-mohiyati, ijod manbai, insonning koinotdagi o'rnini haqidagi savollarga javob izlaydi va anglashga intiladi. Aynan mana shu izlanish jarayoni Faynberg asarlarini falsafiy teranlik cho'qqisiga olib chiqadi. Dard ham shoir poetikasida o'ziga xos o'ringa ega mavzular qatorida turadi. Uning uchun dard insonni sindiradigan kuch emas, balki uni yetuklik darajasiga chiqish yo'lida toblovchi sinovdir. Ijodkor nazarida haqiqiy ijod namunalari qalbgaga ozor berguvchi azoblar-u zarbalar asnosida dunyoga keladi. Shu boisdan uning she'riyatida go'zallik va og'riq bir-biriga zid emas, bir-birini to'ldiruvchi, toblovchi, chuqurroq ma'no hosil qiluvchi tuyg'ulardir. Bu falsafiy yondashuv Faynberg she'riyatining ruhini belgilab beradi. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg she'riyatining shunday jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan "Savol" she'ri tahliliga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Iztirob, ruhiy kechinma, falsafiy tafakkur, poetik mushohada, savol motivi, lirik qahramon, ichki izlanish, ma'naviy kamolot, ijod manbai, dard va go'zallik, hayot va o'lim, abadiyat, o'tkinchilik, yulduz timsoli, qalb jarohati, ilhom va ehtiros, ruhiy uyg'oqlik, shubha va haqiqat, inson mohiyati, badiiy umumlashtirish, ramziylik, ma'naviy boyluk, tafakkur harakati, ichki olam, falsafiy lirika.

**Abstract:** Alexander Arkadyevich Feinberg is a great literary figure in 20th-century Uzbek literature who was able to describe human inner experiences with great skill, penetrating to the subtlest layers of the soul. Although his poetry seems to be a leading depiction of external realities, in fact they are just fragments of reality expressing deep philosophical observations. While the poet puts forward human inner experiences, the essence of life, and spiritual quests as the main themes in his work, he widely uses the tones of asking questions, searching, and striving for truth in his depiction of all of these. Instead of presenting ready-made answers to the reader, he concludes his works with ideas that encourage reflection. No matter what topic Feinberg writes about, the human being is at the center of all of them. He tries to explain human pain, suffering, joy, hopes, and fears to the reader. For this reason, the works he writes about are spiritual. It means a broader meaning than suffering, that is, the path that leads a person to perfection. The complex

relationship between pain and beauty, suffering and inspiration, life and death is one of the main pillars of Feinberg's poetics. In many cases, he does not hide the bitter truths of life, but generalizes them and raises them to the level of aesthetic value. There are also specific reasons why the question motif is of particular importance in the poet's creative path. A question is not a simple grammatical structure, but an act of thought, an expression of spiritual restlessness. Feinberg's lyrical hero is often embodied not as a person who makes firm judgments, but as a person who is looking for answers to something. He seeks and seeks to understand the answers to questions about life, the essence of living, the source of creativity, and the place of man in the universe. It is this process of search that brings Feinberg's works to the peak of philosophical depth. Pain is also among the topics that have a special place in the poet's poetics. His For him, pain is not a force that breaks a person, but rather a test that tests him on the way to maturity. In the eyes of the creator, true examples of creativity are born during the pain and blows that hurt the soul. Therefore, in his poetry, beauty and pain are not contradictory, but are feelings that complement each other, test each other, and create a deeper meaning. This philosophical approach determines the spirit of Feinberg's poetry. This article is devoted to the analysis of the poem "Question", which embodies such aspects of the poetry of Alexander Arkadyevich Feinberg.

**Keywords:** Suffering, spiritual experience, philosophical thought, poetic observation, question motif, lyrical hero, inner search, spiritual perfection, source of creativity, pain and beauty, life and death, eternity, transience, star symbol, heart wound, inspiration and passion, spiritual awakening, doubt and truth, human essence, artistic generalization, symbolism, spiritual wealth, act of thought, inner world, philosophical lyrics.

**Аннотация:** Александр Аркадьевич Файнберг — великая фигура узбекской литературы XX века, умело описывающий внутренние переживания человека, проникающие в самые тонкие слои души. Хотя его поэзия кажется в первую очередь изображением внешних реалий, на самом деле это лишь фрагменты реальности,

выражающие глубокие философские размышления. Выдвигая на первый план внутренние переживания, сущность жизни и духовные поиски, поэт широко использует в своем творчестве вопросы, поиск и стремление к истине. Вместо того чтобы предлагать читателю готовые ответы, он завершает свои произведения идеями, побуждающими к размышлению. Независимо от темы, человек всегда находится в центре всего. Он пытается объяснить читателю человеческую боль, страдания, радость, надежды и страхи. Поэтому его произведения носят духовный характер. Это означает нечто большее, чем просто страдание, то есть путь, ведущий человека к совершенству. Сложная взаимосвязь между болью и красотой, страданием и вдохновением, жизнью и смертью — один из главных столпов поэтики Файнберга. Во многих случаях он не скрывает горьких жизненных истин, а обобщает их и возводит на уровень эстетической ценности. Существуют также специфические причины, по которым мотив вопроса имеет особое значение на творческом пути поэта. Вопрос — это не простая грамматическая структура, а акт мысли, выражение духовного беспокойства. Лирический герой Файнберга часто воплощается не как человек, выносящий твердые суждения, а как человек, ищущий ответы на что-то. Он ищет и стремится понять ответы на вопросы о жизни, сущности бытия, источнике творчества и месте человека во Вселенной. Именно этот процесс поиска поднимает произведения Файнберга на вершину философской глубины. Боль также входит в число тем, занимающих особое место в поэтике поэта. Для него боль — это не сила, ломающая человека, а скорее испытание, проверяющее его на пути к зрелости. В глазах творца истинные примеры творчества рождаются во время боли и ударов, ранящих душу. Поэтому в его поэзии красота и боль не противоречат друг другу, а являются чувствами, дополняющими друг друга, испытывающими друг друга и создающими более глубокий смысл. Этот философский подход определяет дух поэзии Файнберга. Данная статья посвящена анализу стихотворения «Вопрос», воплощающего такие аспекты поэзии Александра Аркадьевича Файнберга.

**Ключевые слова:** Страдание, духовный опыт, философская мысль, поэтическое наблюдение, мотив вопроса, лирический герой, внутренний поиск,

духовное совершенство, источник творчества, боль и красота, жизнь и смерть, вечность, брэнность, символ звезды, рана сердца, вдохновение и страсть, духовное пробуждение, сомнение и истина, человеческая сущность, художественное обобщение, символизм, духовное богатство, акт мысли, внутренний мир, философская лирика.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zining 70 yillik umri davomida oltindan ham qimmatliroq sermahsul badiiy merosni yosh avlodga qoldirdi. Shoir hayoti, ijodiy faoliyati davomida inson, uni qiynaydigan, quvonchlardan osmonlarga uchishiga sabab bo'ladigan har bir voqea, xususiyatni asarlarda qamrab olishga harakat qildi. Hozirda butun dunyo bo'ylab minglab, millionlab insonlar uning she'riyat, adabiyot namunalarini alohida hurmat va ehtirom bilan mutolaa qilib kelmoqda. Ijodkor har bir tuyg'uga falsafiy yondashishga intilgan. Misol uchun, Faynberg hayot va o'lim masalasiga ham e'tibor qaratib, uni hayotning yakuni emas, mavjudlikning davomi sifatida talqin etishga harakat qiladi. Inson umrining qisqaligi, o'tkinchiligi, abadiyat bilan yuzlashish tuyg'usi Faynberg lirik qahramonining ajralmas bo'lagi. Bu mavzular uning ko'pgina she'rlarida turli xildagi obraz va ramzlar bilan ifoda etilgan. Shoir asarlarida qo'llagan yulduz, osmon, cheksizlik kabi obrazlar uning fikriy doirasi maishiy chegaralardan chiqib, insonni cheksizlik miqiyosida anglash maqsadida qilayotgan urinishlarini bildiradi. Ijodkor uchun inson sirlarga to'lgan bu olamning sirli bo'lagidir. Shu bois uning she'riyatida ma'naviy boylik, ichki xazina, ruhiy izlanish kabi tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi.

## SAVOL

Balki dard, ko'z yoshidan

She'rimizda malohat?

Balki ilon nishidan

Yurakdagi jarohat?

Balki achchiq tutundan

Baytlar o‘tli, barkamol?

Balki izg‘irin kundan

Yurakni teshar shamol?

Qadahda may limmo-lim –

Avj olgaydir kuy, g‘azal?!

Bir boshga bitta o‘lim –

Qo‘rqitilmagay ajal?!

Balki yulduz konida

Bizning yombimiz nihon?

Javob yo‘q zabonida,

Hech kim bilmas. Hech qachon

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Savol” she’ri uning butun ijodiy yo‘nalishiga xos bo‘lgan falsafiy teran mushohada ,ruhiy bezovtalik va inson qalbini anglashga intilish ruhini o‘zida jamlagan.Ushbu asar an’anaviy tasviriy lirika emas,balki tafakkur lirikasi.Unda voqea va syujet emas,savol va izlanish markaziy bosqichga chiqadi.Shoir javob berishdan ko‘ra savol qo‘yishni muhimroq deb biladi.Chunki bu uning nazarida insonni o‘stiradigan,uni fikrlashga majbur qiladigan narsa aynan savoldir.She’rning mazmuni-mohiyati inson hayotining murakkabliklarga to‘la ekanligi,ijodning sirli manbai va mavjudlikning javobsiz qolib ketadigan qirralari xususida mushohada qilishdan iborat.Asarda dard va go‘zallik,iztirob va ilhom,hayot zavqi va o‘lim muqarrarligi o‘rasidagi nozik bog‘liqlik to‘g‘risida so‘z boradi.Shoir inson qalbidagi og‘riqni faqat salbiy jihatdan emas,balki ma’naviy uyg‘onish va ijodiy yuksalish omili sifatida talqin etadi.Shu jihatdan,asari insonni ruhiy jihatdan chiniqtiradigan ,uni ichki kamolot sari yetaklaydigan fikrlar bilan sug‘orilgan.

She’rda ko’tarilgan savollar aniq javob topmaydi. Bu esa asarning kuchli falsafiy jihatini ko’rsatadi. Hayotning eng muhim masalalari -ijodning asl manbai, inson jasorati qayerdan keladi, o’limdan cho’chimaslik ehtimoli bormi, insonning haqiqiy boyligi nimada-singari savollar ochiq qoladi. Shoir “Hech kim bilmasin. Hech qachon” degan fikr bilan inson tafakkuri chegarasi mavjudligi, hayot sirlari esa chegarasiz ekanligini ta’kidlaydi. Bu xulosa umidsizlik g’oyasini emas, kamtarlik va haqiqatni tan olishni ifodalaydi.

Asarning umumiy ohangida iztirob bilan birga ichki qudrat ruhi ham sezilib turadi. Lirik qahramon hayotida sovuqlik, og’riq va o’limni his etib tursa-da, ular oldida bosh egmaydi. Buning o’rniga savollar berish vositasida o’zining ruhiy tirikligini namoyish etib turadi. Demak, she’rning g’oyaviy yo’nalishi insonni tushkunlikka tushish o’rniga tafakkurga, ongli yashashga da’vat etadi.

Badiiy jihatdan she’rda soddalik bilan falsafiy teranlik hamohang qo’llanilgan. Undagi obrazlar ramziy ma’noga ega bo’lib, inson ichki kechinmalarini chuqur umumlashtiradi. Faynbergning she’rda foydalangan uslubi misralarga qisqa, lo’nda bo’lsa-da o’zida og’ir falsafiy muhohada yukini ko’taradi. Har bir satr ostida teran falsafiy qatlam jo etilgan. Shuning uchun bu hajm jihatdan kichik she’r ma’naviy jihatdan og’ir yukni ko’taradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Savol” she’ri inson she’riyatining ichki dialogi, ijod va hayot haqidagi falsafiy izlanish, javobsiz savollar ortidan haqiqatga intilishning ifodasidir. Uni o’qigan kitobxon tayyor hayotiy xulosa olish o’rniga, hayot haqidagi o’z fikriga, xulosasiga ega bo’lish uchun mushohada qilishga harakat qiladi. Aynan mana shu xususiyat Aleksandr Faynberg ijodining teranligi va badiiyligini yaqqol ko’rsatib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to’plami

2. Sohili S. She'rlar to'plami. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
3. Usmonova D. Zamonaviy she'riyatda sevgi falsafasi va poetik obrazlar tizimi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
4. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodining-bugungikundagi-v2.html>
5. <https://arboblar.uz/>
6. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>